

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 9 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 9 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулв Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL)	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i> SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	26-31
<i>Намазова Умида Нормурадовна</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ	32-41
<i>Самадов Искандар Исмамович</i> ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i> SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i> SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... ..	57-64
<i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i> MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI	65-68

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tolipova Baxtigul</i> MAMLUKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i> ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i> INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARNING TAJRIBASI	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i> APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS	110-120
<i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i> MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i> ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i> AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	139-144
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i> RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадқуловна</i> ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ	171-176
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i> KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i> ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР	185-190
<i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i> “BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i> JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA)	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i> SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA	202-206

<i>Abulova Zilola Azimovna</i> INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI	207-201
<i>Qurbonova Dilnoza Olimovna</i> TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK.....	210-216
<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI	217-221
<i>Babajanova Aziza Rustamovna</i> ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI	222-227
<i>Khursanova Laylo Bakhtiyarovna</i> REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH DICTIONARIES	228-232
<i>Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI	233-238
<i>Samadova Visola Baxtiyor qizi</i> INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLOGIK BIRLIKLARLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI	239-242
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Tўlaganova Gulchexraзахитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи</i> AЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	243-252
<i>Tosheva Maftuna Anvar qizi</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR	253-262
<i>Ikramov Sherzod Raximdjanoich</i> VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	263-266
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Tohirova Mohigul Umir qizi</i> KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA)	267-274
<i>Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich</i> OLIY HARBIIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI	275-281
<i>Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI	282-292
<i>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna</i> BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI	293-301

<i>Алимова Нигора Исраиловна</i> ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ	302-308
<i>Матажонова Гулноза Каримовна</i> IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i> GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i> QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i> УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i> МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i> GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'riboyevna</i> TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i> TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI	357-362
<i>Utkirov Abbas Meyliyevich</i> ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i> BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCES

Received: 30 August 2024

Accepted: 5 September 2024

Published: 15 September 2024

Article / Original Paper

PSYCHOLOGICAL STUDY OF THE LEVEL OF SOCIAL FRUSTRATION OF INDIVIDUALS WITH VISUAL IMPAIRMENT. (BASED ON L.I.WASSERMAN'S "METHODOLOGY FOR DIAGNOSING LEVELS OF SOCIAL FRUSTRATION")

Tohirova Mohigul Umir qizi

PhD student of Samarkand State University

Abstract. This article explores the pedagogic and psychological factors of socialization of individuals with visual impairments in the world and Uzbekistan. The article also analyzes the specific psychological characteristics of individuals with visual impairments and their level of social frustration on the basis of L.I.Wasserman's "methodology for diagnosing levels of social frustration".

Key words: individuals with visual impairment, socialization, integration, pedagogue, psychologist, social frustration, social frustration, L.I.Wasserman methodology.

KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOIY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA)

Tohirova Mohigul Umir qizi

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahonda va O'zbekistonda ko'rishda nuqsoni bor shaxslar ijtimoiylashuvining pedagogik va psixologik omillarini o'rganilgan. Shuningdek, maqolada ko'rishda nuqsoni bor shaxslarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari va ularning ijtimoiy umidsizlik darajasini L.I.Vassermanning "Ijtimoiy frustratsiya (umidsizlik) darajasini diagnostika qilish metodologiyasi" asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ko'rishda nuqsoni bor shaxslar, ijtimoiylashuv, integratsiya, pedagog, psixolog, ijtimoiy frustratsiya, ijtimoiy umidsizlik, L.I.Vasserman metodikasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N37>

Kirish. Ayni paytda dunyo bo'ylab kamida 2,2 milliard odam zaif ko'rish qobiliyatiga ega, ulardan 1,2 milliardini davolanish mumkin bo'lgan darajada bo'lsa, qolgan qismi davolab bo'lmaydigan darajada hisoblanadi. Dunyo ko'zni parvarish qilish bo'yicha jiddiy muammolarga duch kelmoqda, jumladan profilaktika, davolash va rehabilitatsiya xizmatlarining qamrovi va sifatidagi tengsizlik, ko'zni parvarish qilish bo'yicha aniq tavsiyalarning yetishmasligi va sog'liqni saqlash tizimlarida ko'zni parvarish qilish bo'yicha malakali shifokorlarning yetishmasligi va boshqalar.

Ko'rish yomonlashgan va yakuniy ko'rlik prognozi bo'lganlarda o'z joniga qasd qilish xavfi nisbatan yuqori va shuning uchun qo'llab-quvvatlovchi xizmatlarga muhtoj bo'lishi mumkin. Ko'pgina tadqiqotlar jiddiy ko'rish buzilishini qanchalik tez qabul qilish reabilitatsiya dasturlarini yaxshiroq va samaraliroq bajarishga olib kelganligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, ko'rish to'liq yo'qolganida, psixologik stress eng yuqori darajada bo'ladi. Shuning uchun psixologik moslashuvni ta'minlash uchun reabilitatsiya xizmatlari juda muhimdir.

Mamlakatimizda alohida yordamga muxtoj bolalarning ta'lim-tarbiyasi va reabilitatsiyasi jarayonlarini isloh qilib borish davlat va jamiyat oldida turgan masaladir. Jumladan, nogironlarni ijtimoiy himoyalash, o'qitish, tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (23-modda) hamda davlatimiz tomonidan 1992-yil ratifikatsiya qilingan BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasida nogiron bolalarning alohida parvarishi, ta'limdan foydalanish, munosib turmush kechirish huquqlariga egaligi e'tirof etilgan. Ma'lumki, hozirgi kunda bolalalikdan yoki hayoti davomida u yoki bu ta'sirlar sababli nogiron hisoblangan shaxslar ta'limda alohida e'tiborga muxtoj yoki imkoniyati cheklanganlar deb yurttilmoqda. Bu toifa bolalar, o'smir va kattalarning ta'limi, tarbiyasi umumiy pedagogika va psixologiyaning barcha qonuniyatlariga asoslangan holda maxsus pedagogika, maxsus psixologiya kabi mustaqil fan sifatida tadqiq qilinadi, rivojlanadi.

Bundan tashqari, 2023-yil 27-fevralda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarorida Adliya vazirligiga "Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda nogironligi bo'lgan shaxslarga berilgan imtiyozlar, nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan shaxslarga o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlaridan foydalanishlari uchun qulay sharoitlar yaratish haqida keng tushuntirish ishlarini amalga oshirish"[1] vazifasi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, 2022-yil 10-fevral kuni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning biz tadqiqot olib borgan Samarqand viloyat 59-sonli "Nurli maskan" maktab internatiga tashrifi davomida Prezidentimiz shunday dedi: "Sizlar oliygohni tugatgunlaringizcha, har bir yo'nalish, sizlar egallagan kasb bo'yicha har bir davlat idorasida ish o'rni bo'lishi kerak. Ana shunday hayotimiz mutlaqo o'zgaradi va ijtimoiy adolat deganda ana shu adolat bo'ladi".

Shundan so'ng, 2022-yil 18-aprelda "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-209-sonli Prezident qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari deb nomlanishi va ushbu maktablar Ichki ishlar vazirligiga birlashtirilishi belgilandi. Qarorning 1-bandiga ko'ra Ichki ishlar vazirligi "Nurli maskan" maktablariga mas'ullarni birlashtirgan holda:

- sifatli ta'lim va tarbiya berishga, ularning maishiy sharoitlarini yaxshilashga, shuningdek, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga;
- o'quvchilarning jismoniy imkoniyatidan kelib chiqqan holda, ularni sog'lom, ma'nan yetuk inson qilib tarbiyalashga hamda dunyoqarashini shakllantirish, sport turlariga qiziqtirish va jalb etishga;

- o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga doimiy ravishda ko'maklashadi.[2]

Ko'zi ojiz shaxslar taraqqiyotining manbaalarini bilmay turib, ular ta'limiga yondosha olmaymiz. Ko'zi ojizlar ham sog'lom insonlar kabi yashashga, ilm olishga, ishlash va hayotda o'z o'rnini topishga xaqlidir. Davlatimiz siyosati, albatta, ko'zi ojiz insonlarni ham inobatga olib, ta'lim-tarbiya jarayonlariga ijobiy o'zgarishlarni olib kelmoqda. Chunki bizning ma'naviy merosimiz va muqaddas dinimizda komil inson tarbiyasi asosiy mavzu sifatida talqin etilgan.

Ko'rishda nuqsoni bor bolalar ta'lim-tarbiyasi masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Maktabgacha tarbiya tizimi ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama kamol toptirish, ko'r va zaif ko'ruvchilar nuqsonli rivojlanishini oldini olish, korreksiyalash va ularning sog'ligini himoyalash va mustahkamlash kabi muhim ijtimoiy masalalarni hal qiladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va maxsus ta'lim berishda oilaga ko'maklashish maqsadida maxsus va oilaviy MTT qoshida maktabgacha tarbiya muassasalari tashkil etilgan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga maxsus MTT larda maqsadli ta'lim va tarbiya berish jarayonida ularga normal psixik rivojlanishni ta'minlash, ilk bolalik davridagi noto'g'ri tarbiya natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash, kompensatsiyalash mumkin. O'zbekiston Respublikasida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 18-iyundagi 117-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Qarorga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'rishda og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar, ambliopiya va g'ilaylik, zaif ko'ruvchilar ta'lim tarbiya olishlari mo'ljallangan. Ta'lim muassasalariga 2-3 yoshdan, har bir guruhga 6-8 nafardan qabul qilinishi belgilangan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun bog'chalar faoliyati bolalarning umumta'lim dasturlarini o'zlashtirishga imkoniyatlarini, balki rivojlanishdagi ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash va kompensatsiyalashni ta'minlaydi.[3]

Yurtimizda ta'lim sohasiga juda keng e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, inklyuziv ta'limga ham yuksak darajada imkoniyatlar va sharoitlar yaratilmoqda. Inklyuziv ta'lim – alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdir. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Xususan, maxsus maktablarda ta'lim oluvchi o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, sifatli pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish nazarda tutilgan. Bunga normativ-qonuniy hujjat sifatida "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr O'RQ-637-son, "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori-4860, 2020-yil 13-oktabr PQ-4860-son, "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2021-yil 12-oktyabr VM-

638-son, Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash shartlarini tartibga solish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, 1994 yil 29-sentabr 2-ilovasi VM-490-son misol bo'la oladi.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, Amerika Qo'shma Shtatlarida ko'rish qobiliyatini eng yaxshi ko'zda 20/200 dan yaxshiroq tuzatib bo'lmaydigan, 20 daraja (diametr) yoki undan kam ko'rish maydoni qolgan har qanday shaxs qonuniy ravishda ko'r hisoblanadi va davlat homiylik qiladigan dasturlarga kiritiladi.

Qisman ko'rish, ko'rish qobiliyati past va butunlay ko'r atamaları maktablar, kollejlarda va boshqa ta'lim muassasalari tomonidan ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilarni tavsiflash uchun qo'llaniladi. Ular quyidagicha aniqlanadi:

Qisman ko'rish - bu ko'rish muammosining bir turini ko'rsatadi, ba'zi hollarda odam maxsus ta'limga muhtoj.

Ko'rish qobiliyati past – odamning eng yaxshi tuzatishdan (kontakt linzalari yoki ko'zoynaklar) so'ng yaxshi ko'rish 20/200 dan kam ko'rish yoki yaxshi ko'zda 20 darajadan kamroq ko'rish maydoni ekanligini ko'rsatadi. Ko'rishning pastligi, odatda, uzoqdan ko'rish bilan cheklanib qolmasdan, jiddiy ko'rish buzilishini anglatadi. Bu ko'rish qobiliyati past bo'lgan, hatto ko'zoynak yoki kontakt linzalari yordamida ham gazetani oddiy ko'rish masofasida o'qiy olmaydigan barcha odamlarga tegishli. Ular muayyan predmetni o'rganish uchun ko'rish va boshqa sezgilarning kombinatsiyasidan foydalanadilar, garchi ular yorug'lik yoki bosma o'lchamda, ba'zan esa braylda moslashishni talab qilishi mumkin.

Butunlay ko'r – brayl yoki boshqa vizual bo'lmagan vositalar orqali ijtimoiylashishga muhtoj shaxslar tushuniladi.

Ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi ko'rishda nuqsoni bor shaxslarni har tomonlama o'rganishga imkon yaratdi. Ularning ruhiyatini yaxshi bilish, pedagogik jarayonini samarali kechishini ta'minlaydi. Nogiron, tug'ma kasalmand bolalar dunyoga kelishini ijtimoiy sabablarini o'rganish, uni oldini olish, ularning dardlariga malham bo'lish bu boradagi muammolarni hal etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

L.S.Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. U «Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari» kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va bularni yanada oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi. L.S.Vigotskiy anomal bolada nafaqat «salbiy» balki «ijobiy» tomonlarini ham o'rgatib, aniqlab, shularga tayangan holda va potentsial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. U korreksion pedagogika sohasida katta zaruriy meros qoldirdi.

Atoqli psixolog L.V.Zankov 1935-yildan L.S.Vigotskiy bilan hamkorlikda ishladi. Bu olimlarning olib borgan tadqiqot ishlari psixologiya va korreksion pedagogikaning nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini noto'g'ri tushunishga qarshi chiqdilar, «rivojlanishning to'xtash nazariyasi», «chegara» degeneratsiya nazariyasi», «ma'naviy defektlilik» kabi g'ayri ilmiy va reaksiya nazariyalarni fosh etdilar. Eksperimental psixologiya laboratoriyasida anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta'lim ta'siri ostida qanday o'zgarib borishini o'rganish, ulardagi mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy tomonlarini ham aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi.[4]

L.S.Vigotskiy tomonidan, ko'rlar oltinchi sezgi (harakat)ga egaligi ko'rsatilib, u ularga predmetlarni masofada sezishga ranglarni ham sezishga imkoniyat yaratadi. Ta'lim jarayonida pedagog, ota-onalar ko'rlikni kompensatsiya qilish bolada uning hayotining birinchi oylaridan boshlanishini hisobga olish lozim.

Ko'rlikni kompensatsiyalash, deydi L.I.Solnseva, butun psixik ta'lim tizimini, sensor tizimini, intellektual komponentlarni o'z ichiga oladiki, bular bolalarga adekvat va tashqi dunyoni aktiv aks ettiradigan va bolalarni yoshiga qarab har xil shakldagi faoliyat bilan shug'ullanishiga imkoniyatlar yaratib beradi. Zaif ko'ruvchilar hodisalar, predmetlar bilan tanishganda shuningdek maydon orientirovkasini olishda va harakatlenganda ularda saqlanib qolgan ko'ruvdan foydalaniladi. Masalan, ko'zi ojizlarda ranglarni idrok etish buzilgan holatda bo'ladi. Keskin ifodalangan yaqindan ko'rishda va uzoqdan ko'rishda ko'zi ojizlar ba'zi bir pedmetni ifodalaydigan xira-shira belgilarni payqamasdan qolishi mumkin. Maxsus ta'lim erta boshlanganda normal maydon va stereoknopik ko'ruv yaxshi rivojlanadi va mukammallashadi, bu ularda kelajakda murakkab fazoviy ko'rgazmalarni idrok etish imkonini beradi.[5]

Psixologiyada ko'rish idroki tushunchasi mavjud bo'lib, u ko'rish analizatorlari yordamida kishi predmetlarning rangini, shaklini, hajmini, katta-kichikligini, harakat va harakat yo'nalishini aniqlaydi. Ko'rish idroki funksiyalarining buzilishi atrof-voqelikni bilishda katta qiyinchiliklar keltirib chiqaradi, bu predmetlar olami haqidagi hissiy ma'lumot va uning nutqiy talqini o'rtasidagi uzilishda namoyon bo'ladi. Ko'r va zaif ko'ruvchilarda ko'rish analizatorlari faoliyatining buzilishi analizatorlar ichida yoki analizatorlar orasida yangi bog'lanishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ko'ruvchi shaxslarga nisbatan bularda u yoki bu analizatorlar tizimi faollashadi, rivojlanadi. Ko'r yoki zaif ko'ruvchi shaxslardagi ko'rish analizatorlaridagi bu nuqson oqibatida normal ko'ruvchi shaxslardagidan farqli ravishda, o'ziga xos analizatorlararo munosabatlar yuzaga keladi. Bu holat o'ziga xos bo'lgan, faqatgina shu toifa nuqsonlargagina tegishli bo'lgan xususiyatlardir. Ko'rishning zararlanish oqibatlari birinchi galda sezilarli ta'sir etadi.

Mashhur psixolog B.G.Ananyev g'oyalariga tayanadigan bo'lsak, sensor taraqqiyot normada ham nuqsonda, ham bir yo'nalishda ketib ularning qonuniyatlariga bo'ysunar ekan.

Fiziolog A.A.Uxtomskiy ta'biricha, «eshitish – inson sezgi a'zolaridan eng asosiysidirki, insonning inson darajasiga yetishida katta rol o'ynaydi». Demak, ko'rishdan keyin inson hayotida, bilim egallashida, inson bo'lib yetishishida eshitish analizatorlari turar ekan. Ma'lumki, ko'rlar qatoriga, toifasiga ko'rish o'tkirligi 0 dan 0,04gacha bo'lganlar kirsak, zaif ko'ruvchilarga 0,05 dan 0,2 gacha bo'lgan shaxslar kiradi.

Ko'zi ojizlar uchun eshitishning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, A.Krogus shunday yozadi: «Ko'rlik haqida gapirganda aslida tuyish sezgilari orqali olingan bilimlar haqida fikrlaymiz. Ammo, ko'rlarni uzoq muddat kuzatishlar asosida shunga amin bo'ldimki, bizlarga ko'rish qancha ahamiyatga ega bo'lsa, eshitish ko'rlar uchun shunchalik ahamiyat kasb etar ekan».

Hid bilish jarayonlari ham ko'rlarda o'ziga xos tarzda rivojlanar ekan. Ular non, oziq-ovqat, sanoat va boshqa tur magazinlarni hech bir qiyinchiliksiz farqlay oladi. Idrok ruhiy va asab tizimida o'ta murakkab jarayon bo'lib, uning maxsus markazi bosh miyada joylashgan. Shaxsning hayot tarzi, ish faoliyatining harakatiga qarab biror analizator dominant – yetakchi bo'ladi. Ushbu shaxsda o'sha idrok turi kuchli bo'ladi. Ko'pgina sog'lom kishilarda ko'ruv idroki yetakchidir.[6]

N.S.Kojanovaga ko'ra ko'rish analizatori yordamida dunyoni idrok etish bolaning ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tevarak-atrof haqidagi eng kuchli taassurotlar ko'z bilan anglanadi. Bola ko'rish qobiliyati orqali, ko'rish analizatori yordamida dunyoni tushunishi bolaning ruhiy rivojlanishida muhimdir. Tevarak-atrof haqidagi eng kuchli taassurotlar ko'z bilan idrok qilinadi. Bola ko'rish qobiliyati orqali narsalarning rangi, shakli, hajmi, harakati, uzoq-yaqinligi, fazodagi o'rni haqida tasavvurga ega bo'ladi. Ma'lumki, ko'rish analizatori nurlarni qabul qiluvchi qism – ko'z olmasi (soqqasi) va uning yordamchi apparatidan ko'zga tushgan tasvirni avval po'stloq osti markazlariga, keyin esa oliy ko'ruv markazlari joylashgan katta miya po'stlog'iga (ensa qismlariga) yetkazib beradigan o'tkazuvchi yo'llardan tashkil topgan. Ana shu analizatorning har qanday qismlaridagi o'zgarishlar bolaning ko'rish qobiliyatiga, albatta, ta'sir ko'rsatadi.[7]

Tadqiqot usullari va materiallari: Ushbu tadqiqot maqsadi ko'rishda nuqsoni bor shaxslarda ijtimoiy umidsizlik darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, L.I.Vassermannning "Ijtimoiy frustratsiya (umidsizlik) darajasini diagnostika qilish metodologiyasi" asosida tadqiqot ishlari olib borildi.

Ijtimoiy frustratsiya - (lot. frustratio — aldanish, rejalarning barbod bo'lishi) — muammoni hal qilish yoki maqsadga erishish yo'lidagi faoliyatni izdan chiqaruvchi ruhiy holat. U kishining maqsadga erishishi yo'lida uchraydigan, obyektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki sub'ektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladi. Frustratsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar frustrator deyiladi. Flustratsiya holati frustratorning kuchiga, jadalligiga bog'liq. Fluratsiya holatida shaxsning vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyati muhimdir. Shu bois turmushning noqulay ta'sirlariga qarshi kurashish uchun odam fe'l-atvoridagi barqarorlikni shakllantirish lozim. Frustratsiya ham boshqa ruhiy holatlar singari kishi fe'l-atvoriga xos yoki yangi xislatlarning boshlanishini ko'rsatuvchi, shuningdek, o'tkinchi holat bo'lishi mumkin. Frustratsiya asosan, salbiy hissiyotlar uyg'otadi. Frustratsiyaning turlari: tajovuzkor holat, apatiya, depressiv holat, g'amginlik tuyg'usi, o'ziga ishonmaslik, kuchsizlik, ma'yuslik va boshqalar. Frustratsiyaning tajovuzkor holati ko'pincha o'zini tuta olmaydigan, qo'pol odamga xos bo'lsa, depressiya holati o'ziga ishonmaydigan shaxsga taalluqlidir. Ba'zan og'ir tabiatli kishilarda ham shu xildagi holatni vujudga keltirish mumkin, lekin bu vaziyat uzoqqa cho'zilmaydi.

Ijtimoiy umidsizlik - bu shaxsning ijtimoiy ierarxiyadagi yutuqlari va mavqeidan norozilik tufayli yuzaga keladigan ruhiy zo'riqishning bir turi (shakli). Taklif etilayotgan anketa hayotning asosiy jabhalarida shaxsning ijtimoiy yutuqlaridan norozilik darajasini qamrab oladi.

Tadqiqotimiz Samarqand viloyat 59-sonli "Nurli maskan" maktab internatida olib borildi. Tadqiqot obykti sifatida maktabning yuqori sinf o'quvchilari jalb etildi. Jami respondentlar qamrovi 40 nafar, 11 nafari qiz, 29 nafari o'g'il bolalarni tashkil etadi.


Respondentlarga Siz qoniqasizmi? deb tugallangan 20 ta savol o'qib eshittirildi va test materialini quyidagi shkala bo'yicha baholash so'raldi:

- 0 - to'liq qoniqarli;
- 1 - ancha qoniqarli;
- 2 - javob berish qiyin;
- 3 - ancha noroziman;
- 4 - butunlay noroziman.

Bu ballar har bir javob uchun berilgan ballar soniga mos keladi.

Muhokama va natijalar. Ta'kidlash joizki L.I.Vassermanning "Ijtimoiy frustratsiya (umidsizlik) darajasini diagnostika qilish metodologiyasi" savolnomalari mazmunan o'zgartirilmagan holda psixologiya fanlari doktori, prof.O'.B.Shamsiyev ilmiy rahbarligida ko'zi ojiz o'smirlarga moslashtirildi.

Umumiy natijalarga ko'ra, respondentlarda ijtimoiy frustratsiya (umidsizlik)ning juda yuqori, yuqori, o'rtacha va noaniq darajalari aniqlanmadi. Shuningdek, 3 nafarida (7%) past daraja, 24 nafarida (60%) juda past daraja, 13 nafarida (33%) umidsizlik yo'q yoki deyarli yo'q natijalari qayd etildi.



Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, ko'zi ojizlarning shaxs sifatida jamiyatga integratsiyalashuvida ijtimoiy muhitning roli muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda imkoniyati cheklangan shaxslar ijtimoiylashuviga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlarining xorijiy tajribasini tahlil qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, rivojlangan jamiyatda inson huquq va erkinliklarini, tenglikni ta'minlash ustuvor hisoblanib, hech kimni kamsitishga yo'l qo'yilmaydi. Mamlakatdan qat'i nazar, hech inson davlat e'tiboridan chetda qolmaydi. O'zbekiston Respublikasida jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari davlat tomonidan qat'iy muhofazaga olinmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi mustahkamlandi. Bu ijtimoiy muhit barqarorligini ta'minlash uchun huquqiy poydevor bo'lishi shubhasiz. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Biz uchun nogironligi bo'lgan insonlarni ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga jalb etish ustuvor yo'nalish hisoblanadi", degan so'zlari ko'rishda nuqsoni bor shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlanishi davlat muhofazasida ekanligini tasdiqlaydi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.02.2023 yildagi PQ-74-son.
2. "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

- to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 18.04.2022 yildagi PQ-209-son.
3. Sh.N.Ne'matova. "Maktabgacha yoshdagi ko'rishda nuqsoni bo'lga bolalarni o'qitish va tarbiyalash". International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities. 2022. 119-121.
 4. Muzaffarova, X. (2022). Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish xususiyatlari. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5). Извлечено от <https://journal.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/6422>.
 5. Sharopova Gujaxon Soatali qizi. "Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash". Образование наука и инновационные идеи в мире, vol. 31, no. 1, Oct. 2023, pp. 37-40, <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/8917>.
 6. Rahimova Dilnoza Hoshimjon qizi, Mirzaolimov Elmurod Ismoilovich. "Ta'lim orqali ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning boshqa analizatorlarini rivojlantirish aspektlari". xalqaro fan va texnologiya jurnali , jild. 1, yo'q. 18 iyun, 2024 yil, 33-41-betlar, <https://doi.org/10.1808/x1p85b21>.
 7. Кожанова Н.С. Состояние сформированности коммуникативных умений дошкольников с нарушениями зрения. Специальное образование. 2009; No 2 (14): 18 –29.
 8. <http://nhrc.uz/oz/news/m10232>
 9. "American Medical Association (AMA)" data archive. ama-assn.org.
 10. "World report on vision". World Health Organization. <https://www.who.int/publications/i/item/9789241516570>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 9 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).